
E'TIBOR



Navro'z bayrami arafasida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev tuman hududidagi mahallalarda bo'lib, kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka muhtoj, yoshi ulug' nuroniylar, nogironlar holidan xabar olib, ularga o'z hisobidan Navro'z sovg'alarini taqdim etdi. - Dorilomon zamonda yashayapmiz. Berilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklardan g'oyatda minnatdorman. Shunday zamonda yashash bizlarga nasib etgan ekan.

Ming qatla shukr, - deydi 94-yoshli G'aznovlik onaxon Tuxtabibi Jalilova. - Eng avvalo, o'tgan har bir kunimiz uchun shukr qilish lozim. Zero, biz ishlagan, yashagan zamonlarda bunday kunlarni ko'rish orzu, ertak edi. Farzandlarimiz baxti, kelajak avlod baxti uchun Yurtboshimizning boshlari omon bo'lsin, davlatimiz rahbariga ming rahmat, - deya duoga qo'l ochdi 100 yoshli otaxon, So'xlik maorifchilar ustози Mirzojon-ota Xujamov. Darhaqiqat, yangi kun, Navro'zga yetib kelgan inson borki, tilida va dilida shukronalik mujassam.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-03-24 10:15:30